sal ilgariroq aytib o‘tilganidek, dunyo miqyosida energiya hosil qiladigan manbalar tugab boryotgani bo‘lsa, ikkinchi sababi atmosferaga zararli chiqindi gazlar chiqarilishi hisobiga havoning keskin ifloslanishi va global iqlim muammolari vujudga kelayotganidir. Ekspertlar vaziyatni o‘nglash uchun jahon iqtisodiyotida “yashil taraqqiyot” tamoyillarini joriy etish zarurligini ta’kidlamoqda. Mazkur yondashuv BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarida ham o‘z ifodasini topgan. Bu borada yurtimizda ham davlatimiz rahbari boshchiligida jiddiy islohotlar olib borilayotir. Ma’lumki, 2019 yilda O‘zbekiston “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasini qabul qildi. Unda yaqin o‘n yilda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko‘zda tutilgan. Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekiston uglevodorod energiyasi — neft, gaz, ko‘mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo‘qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablag‘ni talab qiladi. Buning o‘rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali bo‘lgan “yashil energetika”ga o‘tish ming chandon afzal. Zero, butun dunyo shu yo‘lni tanlayapti. E’tiborlisi, O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlaridan birinchi bo‘lib mazkur harakatga qo‘shildi. Mohiyatan olib qaraganda, ikki yil avval qabul qilingan “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi yurtimizning “yashil taraqqiyot” sari yuz burganini anglatadi. Joriy yilning 27 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “yashil energetika” sohasidagi yirik qo‘shma loyihalarni ishga tushirishga bag‘ishlangan tantanali marosimda ishtirok etdi. Unda davlatimiz rahbari mamlakatda “yashil energetika”ni rivojlantirishning 2030 yilgacha strategik dasturi haqida muhim mulohazalarni bildirdi. Qayd etilganidek, biz sohani isloh etishni, birinchi galda, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining yetakchi ekspertlari bilan maslahat qilishdan boshladik. Ayni chog‘da bir qator qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish va yangi qarorlarni qabul qilish orqali energetika tarmog‘ida bozor tamoyillariga asoslangan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Sohada ma’muriy-buyruqbozlik mexanizmlari va monopoliyadan voz kechib, zamonaviy boshqariladigan ochiq va



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th June, 2025

shaffof tizimga o'tildi. Xususiy sektor va xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Energetika vazirligi, shuningdek, har bir yo'nalish bo'yicha mas'ul va javobgar bo'lgan yangi tashkilotlar tuzildi. Ilk bor 100 foiz to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan Karmana va Nurobod tumanlarida 2 ta quyosh stansiyasi ishga tushirilib, shu kunga qadar 1 milliard kilovatt soat "yashil" elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Shu sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida mamlakatimiz tarixida yana bir yorqin sahifa ochildi. Ya'ni umumiy quvvati ikki ming to'rt yuz megavatt bo'lgan oltita yirik quyosh va shamol stansiyalari tarmoqqa ulanmoqda. Jumladan, O'zbekistonning yaqin do'sti, keng qamrovli hamkori bo'lgan Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi tomonidan Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida 3 ta quyosh elektr stansiyasining birinchi bosqichi barpo etildi. Bundan tashqari, ushbu nufuzli kompaniya tomonidan Tomdi tumanida barpo etilayotgan zamonaviy shamol stansiyasining 100 megavatti ishga tushirilmoqda. Qolaversa, "Gezhouba" kompaniyasi bilan Buxoro va Qashqadaryo viloyatlaridagi quyosh stansiyalarining dastlabki 400 megavattli generatsiyasi boshlanadi. Eng e'tiborli jihati shundaki, ushbu barcha loyihalar davlat-xususiy sheriklik asosida, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirildi. Umumiy qiymati 2 milliard dollarlik bu loyihalar hisobidan yiliga 6 milliard kilovatt soat elektr ishlab chiqarilib, ikki milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi. Ayni chog'da 2 million xonadon uzluksiz va kafolatli elektr energiyasi bilan ta'minlanadi. Sanoat va xizmatlar sohasida esa 4 milliard dollarlik qo'shilgan qiymat yaratiladi. Bizning strategik sherigimiz va yirik savdo hamkorimiz bo'lgan Xitoy ishtirokidagi loyihalar ilgari tajribada kuzatilmagan qisqa muddatda – 9 oy ichida ishga tushirilganini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlash zarur. Gap shundaki, jahonda ishlab chiqarish zanjiri va logistika bilan bog'liq muammolar kuchayib borayotganiga qaramasdan, biz bu borada "Goldwind", "Sungrow", "Jolywood", "Longi" kabi kompaniyalar bilan samarali ish olib bormoqdamiz. Biz nima uchun "yashil energetika" rivojiga bu qadar katta rag'bat va e'tibor qaratyapmiz? Chunki, biz, eng avvalo, 2030 yilga borib sanoat hajmini ikki karra oshirishni, metallurgiya, neft-kimyo va mashinasozlik kabi sohalarni sifat jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko'tarishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod yirik sanoat



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th June, 2025

va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni ko'zlayapmiz. Bu ulug'vor niyatlarimizga erishish uchun bizga kafolatli va barqaror energiya resurslari suv va havodek zarur. Hisob-kitoblarga ko'ra, kelgusi olti yilda mamlakatimizda elektr energiyasiga bo'lgan talab hozirgi 83 milliarddan 120 milliard kilovatt soatga o'sishi kutilmoqda. Buni, birinchi galda, qayta tiklanadigan energiya hisobidan qoplaymiz. Ikkinchidan, global muammoga aylangan iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tinimsiz izlanyapmiz. Xalqaro sammitlarda muhim taklif va tashabbuslarni faol ilgari suryapmiz. Yaqinda Dubayda BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi doirasida dunyo mamlakatlari "yashil" generatsiyani uch barobar oshirishga kelishib oldi. O'zbekiston bu tashabbusni to'liq qo'llab-quvvatlaydi va 2030 yilgacha "yashil energetika" manbalarini 27 gigavattga yetkazish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettiradi. Uchinchidan, mamlakatimizda "yashil energetika" bo'yicha nihoyatda ulkan salohiyat mavjud. Yaratganning o'zi bergan bu buyuk imkoniyatdan unumli foydalanib, uni xalqimiz manfaatlariga yo'naltirishimiz zarur. Sohoni rag'batlantirish maqsadida quyosh panellari o'rnatishga imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini kafolatli sotib olish bo'yicha "Quyoshli xonadon" tizimini yo'lga qo'ydik. Shu yilning o'zida yurtimizda 50 ming xonadon va tadbirkorlar tomonidan quyosh panellari o'rnatildi. Mamlakatimizda 7 milliondan ortiq uy-joylar borligini hisobga olsak, bu investorlar uchun katta bozor yaratishini alohida qayd etmoqchiman. To'rtinchidan, hozirgi kunda global miqyosda "yashil" energiyadan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga alohida ustunlik berilmoqda. "Yashil energiya" sertifikatini keng joriy qilinmoqda. O'zbekiston kelgusida aniq reja va qat'iy sa'y-harakatlar orqali "yashil energiya"ni Osiyo va Yevropa mamlakatlari bozoriga ham yetkazib berish bo'yicha dastlabki qadamlarni tashlayapti. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, davlat rahbari yuqaridagi loyihalarni bajargan va unda ishtirok etgan hamkor davlatlar va kompaniyalarga xalqimiz nomidan minnatdorlik bildirdi. Shu bilan birga, xorijiy hamkorlarni "yashil energetika" sohasidagi butlovchi va ehtiyot qismlar ishlab chiqarishda mahalliy korxonalar bilan yaqin kooperatsiya aloqalarini yanada kuchaytirishga chaqirdi. Prezidentimiz o'z ma'ruzasi yakunida mazkur chora-tadbirlarni izchil davom ettirib, raqobatli bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich olib borish, xususan, bu yo'lda yaqinda energetika bozori regulatorini



tashkil etish bo'yicha muhim qarorni qabul qilinganligini, hozir yurtimizda 9 gegavattli 22 ta quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari ustida jadal ish olib borilayotganligini, shu bilan birga, yangi generatsiya quvvatlarini yetkazish uchun infratuzilmani yanada yaxshilashga alohida urg'u berilajagini alohida ta'kidlab o'tdi. Umuman olganda, mamlakatda aholi soni va daromadlari ko'paymoqda. Bunday sharoitda, turgan gapki, energetika resurslariga bo'lgan talab ham ortadi. "Yashil iqtisodiyot"ning muhim komponenti qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va foydalanish hisoblanadi. Bu jihatdan O'zbekistonning salohiyati ancha yuqori. Xalqaro moliyaviy institutlarning hisob-kitobiga qaraganda, respublikada muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilg'i ekvivalentiga teng. Bu real ehtiyojimizdan uch karra ko'pni tashkil etadi. Boz ustiga, "yashil energetika" sohasidagi loyihalarni amalga oshirish O'zbekistonda yaqin o'n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga ko'paytirish imkonini beradi. Bu iqtisodiyotimiz uchun mislsiz foyda keltiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatning "yashil energetika"ga jadallik bilan o'tishi, avvalo, mintaqada ekologik muvozanatni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining energiyaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T.. Yashil iqtisodiyot. Darslik. – T.: "Universitet", 2020, 296 bet.
2. <https://www.tuni.fi/en/news/professor-mikko-hokka-conducts-research-to-improve-energy-efficiency-and-develop-safe-lightweight>
3. https://ewikiuz.top/wiki/Daniel_Yergin#cite_note-quest-epicc-49
4. Beder S. 2017, "Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness", Environmental Conservation, vol. 38, № 2, 140-150 pp.
5. Абдурахманов А. А. «Экономика и общество» №10(89) 2021 www.iupr.ru роль стандартизации и повышения качества продукции.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfséries.com

24th June, 2025

6. Абдурахманов Азиз Абдухаликович. оценка неопределенности измерений в цифровую эру // академический исследовательский журнал if-7.4 январь 2023 том 1 выпуск.



ISHCHI SUYUQLIK ROTOR-FILTRLI QURILMADA GIDRVALIK QARSHILIGINING ENERGIYA ISTEMOLIGA TA'SIRI

Nurullayev Orzikul Ubaevich

Jizza Politehnika instituti Elektr texnologiyasi kafedrası

+998919431810; orziqulnurullayev63@gmail.com

Karimova Xilola JizPi talabasi

Annotatsiya

Qurilmani loyihalashda ushbu parametrlarni ham inobatga olish zarur. δ va dsh ga bog'liq holda qarshilik koeffitsientini aniqlash bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ilmiy-tadqiqot ishlarida qarshilik koeffitsientini aniqlash murakkab harakterga ega va turli chetga chiqishlarni talab etganligi sababli umumiy qonunlar asosida tajriba yo'li bilan aniqlangan.

Абстрактный. Эти параметры также необходимо учитывать при проектировании устройства. Было проведено много научных исследований для определения коэффициента сопротивления в зависимости от δ и dsh . Поскольку определение коэффициента сопротивления в научных исследованиях является сложным и требует различных отклонений, его определяют экспериментально на основе общих закономерностей.

Kalit so'zlari: shtuser, Rotor-filtrli, zichligi, koeffitsient, gidravlik qarshilik, prinsip, maqbul qiymatda, chang zichligi, to'rtli material, rotorni aylantirish, suyuqlik .

Ключевые слова: Штусер, ротор-фильтр, плотность, коэффициент, гидравлическое сопротивление, принцип, допустимое значение, плотность пыли, материал сетки, вращение ротора, жидкость.

Rotor-filtrli qurilmaga [1] berilayotgan ishchi suyuqlik-ka (suv) ta'sir qiluvchi gidravlik qarshilik filtrlovchi materialning [2] kontakt yuzasiga suyuqlikni ejeksiya hosil qilib sepuvchi shtuseriga (4) bog'liq bo'lib, bu jarayonda shtuser (4)

International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th June, 2025

teshigining diametri asosiy rol o'ynaydi va qurilmaning tozalash samaradorligi hamda changli gazni tozalash uchun energiya sarfini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Qurilmani loyihalashda shtuser (4) teshigi diametri va unga bog'liq holda shtuserlar soni shunday tanlanishi kerakki, suyuqlikning minimal sarfida ham filtrlovchi to'rtli material kontakt yuzasi uzunligi bo'yicha teng taqsimlansin va kontakt yuzada maqbul qiymatda suyuqlik qatlami hosil qilsin. Suyuqlik qatlamining maqbul qiymati qurilmaning me'yoriy va barqaror gidrodinamik rejimda ishlashini ta'minlaydi.

Rotor-filtrli qurilmada suyuqlikka ta'sir qiluvchi umumiy gidrvalik qarshiliklarni [3,4,5] adabiyotlarda berilgan hisoblash tenglamalaridan foydalanib quyidagicha yozish mumkin. Bunga ko'ra, umumiy yo'qotilgan bosim quyidagiga teng bo'ladi, Pa:

$$\Delta P_{\text{cyto}} = P_{\kappa} + P_{\text{uu}},$$

bunda P_{κ} – suyuqlik oqadigan quvur ichidagi geometrik bosim bo'lib, u quyidagi tenglama bo'yicha aniqlanadi, Pa [5]:

$$P_{\kappa} = \rho g H,$$

bunda ρ – suyuqlik zichligi, kg/m³; g – erkin tushish tezlanishi, m/s²; H – suyuqlik sathi balandligi, m.

P_{sh} – suyuqlikni teshikdan oqib chiqishidagi yo'qotilgan bosim bo'lib, u Darsi-Veysbaxa tenglamasi bo'yicha aniqlanadi, Pa [5]:


$$P_{\text{uu}} = \xi_{\text{uu}} \frac{\rho \cdot v_c^2}{2},$$

bunda v_s – suyuqlikni teshikdan oqib chiqishdagi tezligi, m/s; ξ_{sh} – suyuqlikni shtuser teshigidan oqib chiqishidagi qarshilik koeffitsienti bo'lib, u shtuser teshigining qalinligi δ va teshik diametiri d_{sh} ga bog'liq. 1-rasm. Qurilmani loyihalashda ushbu parametrlarni ham inobatga olish zarur. δ va d_{sh} ga bog'liq holda qarshilik koeffitsientini aniqlash bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ilmiy-tadqiqot ishlarida qarshilik koeffitsientini aniqlash murakkab harakterga ega va turli chetga chiqishlarni talab etganligi sababli umumiy qonunlar asosida tajriba yo'li bilan aniqlangan. Rotor-filtrli qurilmaga berilayotgan ishchi suyuqlikning shtuser teshigidan oqib chiqishidagi qarshilik koeffitsientini


aniqlashda tajriba usulidan foydalanamiz. 2-rasmda quvur teshigi qarshilik koeffitsientini quvur teshigi qalinligining teshik diametriga nisbatiga bog'liq holda o'zgarish grafigi tasvirlangan [6].

Qurilmaning bitta shtuseri teshigidan oqib chiqadigan suyuqlikning tezligini aniqlash maqsadida Bernulli tenglamasini tadbiq etib [7], quvurdagi bosim P_k va shtuser teshigidagi bosim P_{sh} ni teng deb qabul qilamiz. U holda (4) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin bo'ladi [7].

$$\rho_c g H = \xi_{uu} \frac{v_c^2 \cdot \rho_c}{2}.$$



1-rasm. Shtuser teshigidagi gidravlik qarshilikni hisoblash sxemasi



2-rasm. Shtuser teshigi qarshilik koeffitsenti ξ_{sh} ning teshik qalinligi δ va diametri d_{sh} ga bog'liqligi Hosil qilingan (4) tenglamadan suyuqlik tezligini aniqlaymiz, m/s:

$$g_c = \sqrt{\frac{2(\rho_c g H)}{\rho_c \xi_{uu}}} = \sqrt{\frac{2gH}{\xi_{uu}}},$$

(5) tenglikdan qurilmaning bitta shtuseri teshigidan oqib chiqayotgan suyuqlik sarfini aniqlash mumkin bo'ladi, m³/soat:

$$Q_c = 3600\pi R^2 v_c = 3600\pi R^2 \sqrt{\frac{2gH}{\xi_{uu}}}.$$

Qurilmaga ishchi holatda berilayotgan suyuqlik yordamida filtrlovchi to'rtli material kontakt yuzasini to'rtliq namlash va changli gazlarni yuqori tozalash samaradorligiga erishish uchun shtuserlar soni filtrlovchi to'rtli materialning kontakt yuzasi uzunligi bo'yicha tanlanadi. U holda (6) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin bo'ladi, m³/soat.

$$Q_c = 3600\pi R^2 v_c = 3600n\pi R^2 \sqrt{\frac{2gH}{\xi_{uu}}},$$

bunda n – filtrlovchi to'rtli materialning kontakt yuzasiga suyuqlikni sochuvchi shtuserlar soni, dona. 7) tenglamadan foydalanib rotor-filtrli qurilmaga berilayotgan ishchi suyuqlikning umumiy sarfini aniqlash imkoniga ega bo'lamiz. Ho'l usulda changli gazlarni tozalovchi qurilmalarning tozalash samaradorligi jarayonni amalga oshirish uchun sarflangan energiya orqali aniqlanadi. K.T.Semrauning [8] tadqiqot ishidan ma'lumki, tozalash samaradorligi qurilmaning gidravlik qarshiligiga bog'liq bo'lib, qurilma o'lchami va konstruksiyasiga bog'liq emas. Bunda umumiy energiya sarfi suyuqlik yordamida changli gazlarni tozalashga sarflanishi zarur [8,9,10,11,12]. Rotor-filtrli qurilmada ham energiya sarfi qurilmaning changli gaz kirish va chiqish qismi, forsunkalari, suyuqlik yordamida changli gazni tozalashda, rotorni aylantirish uchun hamda nasos va ventilatorlardagi ishqalanish hisobiga sarflangan energiyani o'z ichiga oladi. Qurilmada suyuqlik oqimiga sarflangan energiya, rotorni aylantirish hamda changli gaz oqimini qurilmadan o'tishida ishqalanishiga sarflangan aniq energiya miqdorini hisoblash murakkab jarayon bo'lganligi sababli, K.T.Semrauning tadqiqot ishidan foydalanib umumiy energiya sarfini quyidagi tenglama bo'yicha taqribiy hisoblaymiz. Hisoblashning ushbu uslubi konstruksiyasi va ish prinsipi turlicha bo'lgan ho'l usulda changli gazlarni

tozalash qurilmalariga qo'llanilganda $\pm 10\%$ xatolik beradi. Rotor-filtrli qurilmaning umumiy energiya sarfi quyidagi tenglama bo'yicha aniqlanadi, $\text{kJ}/1000\text{m}^3$ [8];

$$K_{P\Phi A} = \Delta P_c + \Delta P_{cb} \frac{V_{\text{сую}}}{V_{\text{газ}}} + \frac{N_{P\Phi A}}{V_{\text{газ}}},$$

bunda ΔP_c – suyuqlik berilmagan qurilmaning gidravlik qarshiligi, Pa; ΔP_{cb} – suyuqlik berilgan qurilmaning gidravlik qarshiligi bo'lib, u gaz bilan birga kirayotgan chang zichligiga bog'liq bo'ladi, Pa; $V_{\text{сую}}$ – suyuqlikning hajmiy sarfi, m^3 ; $V_{\text{газ}}$ – changli gazning hajmiy sarfi, m^3 ; $N_{P\Phi A}$ – rotorni aylantirish, suyuqlik va gazni uzatish uchun sarflanadigan quvvat, Wt ;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Исомидинов А.С. Разработка эффективных методов и устройств очистки пылевых газов химической промышленности: Дисс. PhD. Ташкент, 2020. – 18 с.
2. Исомидинов А. С. Исследование гидравлического сопротивления роторно-фильтрующего аппарата // Universum: технические науки. 2019. – №. 10-1 (67).
3. Эргашев Н. А. Исследование гидравлического сопротивления пылеулавливающего устройства мокрым способом // Universum: технические науки. – 2020. – №. 4-2 (73). – С. 59-62.
4. Мадаминова Г. И., Тожиев Р. Ж., Каримов И. Т. Барабанное устройство для мокрой очистки запыленного газа и воздуха // Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-4 (86). – С. 45-49.
5. Rasuljon, T., Azizbek, I., & Abdurakhmon, S. (2021). Research of the hydraulic resistance of the inertial scrubber. Universum: технические науки, (7-3 (88)), 44-5
6. Isomidinov A.S., Karimov I.T., Tojiev R.J. Searching the losing of hydraulic pressure in rotor-filter gas cleaner apparatus // Scientific-technical journal. – 2021. – T. 3. – № 1. – С. 69–72.
7. Абдурахманов А. А. «Экономика и общество» №10(89) 2021 www.iupr.ru роль стандартизации и повышения качества продукции
8. Абдурахманов Азиз Абдухаликович. оценка неопределенности измерений в цифровую эру // академический исследовательский журнал if-7.4 январь 2023 том 1 выпуск



ISTE'MOLCHILAR YUKLAMASINI, ELEKTR ENERGIYASI GRAFIGI

Nurullayev Orzikul Ubaevich

Jizza Politehnika instituti Elektr texnologiyasi kafedrası

+998919431810; orziqulnurullayev63@gmail.com

Murodov Davlat JizPI talabasi

Annotatsiya

Iste'molchilar yuklamasi o'zgarmas qiymatga ega bo'lmay, balki u vaqt, oy, yil bo'yicha va fasllarga qarab o'zgarib turadi. Bundan tashqari, xalq xo'jaligini rivojlanishi va aholi farovonligini oshishi tufayli yuklamalarni muntazam ravishda o'sishi mavjud.

Абстрактный


Нагрузка потребителей не имеет фиксированной величины, а меняется во времени, месяце, году и в зависимости от сезона. Кроме того, в связи с развитием национальной экономики и повышением благосостояния населения происходит регулярное увеличение нагрузок.

Kalit so'zlar. ES. EUL, stansiya, Grafik, kommunal-maishiy, grafik, Eksploatatsiya, koeffitsiyent, Maksimal yuklanis, grafik, Reaktiv, maksimum, faslli.

Ключевые слова. ЭС. ЭУЛ, станция, График, коммуна, график, Эксплуатация, коэффициент, Максимальная нагрузка, график, Реактивный, максимальный, сезонный.

Har bir loyihalanayotgan va qurilayotgan elektr tarmog'i iste'moichilarni yuqori sifatli elektr energiya bilan ishonchli ravishda ta'minlashi shart. Hisoblar uchun dastlabki asosiy ma'lumotlar, bu iste'molchilarni yuklamalari, stansiya va podstansiyalar joylashgan mintaqalar to'g'risidagi ma'lumotlardir. Iste'molchilar yuklamasi o'zgarmas qiymatga ega bo'lmay, balki u vaqt, oy, yil bo'yicha va fasllarga qarab o'zgarib turadi. Bundan tashqari, xalq xo'jaligini rivojlanishi va aholi farovonligini oshishi tufayli yuklamalarni muntazam ravishda o'sishi mavjud.

Masalan. hozirgi vaqtda televizoriarni o'zi 1940-yillarda bo'lgan mamiakatdagi hamma elektr stansiyalami quvvatiga teng quvvatni iste'mol qiladi. Elektr energiyani iste'mol qilish tartibiga energetika uskunolari; ES. EUL va transformator podstansiyalarini ishlash tartibi bog'liqdir. Elektr yuklamalari grafigi deb, abssissa o'qida vaqt va ordinata o'qida esa yuklama o'lchamida, tokda yoki yuklama maksimumiga nisbatan foizda qo'yilgan grafikka aytiladi va bu qandaydir bir keltirilgan vaqt bo'yicha elektr energiyani qabul qilingan miqdori haqida taassurot beradi. Grafiklar sutka bo'yicha, faslli, yillik aktiv va reaktiv yuklamalar grafigiga bo'linadi. Sanoat iste'molchilari yuklamalar grafigining turlari ishlab chiqarishdagi texnologiya jarayonlarini xususiyatlariga bog'liq. Kommunal-maishiy korxonalarning yuklamalar grafigi yorituv uskunolari tufayli o'ziga xos to'satdan o'zgaruvchan xarakterga egadir. Masalan 3.1.1 a,b,d-rasmlarda mashinasozlik zavodining (a), kimyoviy ishlab chiqarishning (b), maktab yoki instituting (d) grafiglari keltirilgan.



1 -rasm. Iste'molchilarning har xil shakllardagi yuklamalar grafigi.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, bu grafiklar bir-birlaridan ancha farq qiladi. Yuklamalar grafiglari asosida elektr uskunolari va elektr tarmoqlarini ishlash tartibini tahlil qilish

International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th June, 2025

va hisoblash, har bir vaqt oralig'ida elektr tarmoqlarida yuklamani oshishi va rivojlanishini hisobga olib, elektr iste'moli tartibini yaxshilash chora-tadbirlari ko'riladi. Yuklamalar grafigi elektr qabul qiluvchilarni ko'rilayotgan hisoblash oralig'ida iste'mol qilayotgan quvvatini rejalashtirish uchun sutkalik eng katta faol quvvatni aniqlashga kerak bo'ladi. O'rtacha yuklamalar Korxonalarining hisobiy yuklamalarini aniqlashda va elektr ta'minoti tizimidagi energiya sarfini, nobudgarchiligini hisoblashda o'rtacha yuklamasi hisobiy yuklamaning eng kichik qiymati to'g'risida ma'lumot beradi. Umumiy holda ma'lum oraliqdagi o'rtacha quvvat quyidagicha ifodalanadi:

$$P_{o'rt.} = \frac{1}{t} \int_0^t p dt \quad Q_{o'rt.} = \frac{1}{t} \int_0^t q dt$$

Eksploatatsiya sharoitida guruh iste'molchilarining o'rtacha quvvatlari 44 aktiv va reaktiv energiya hisoblagichlarining ko'rsatkichlari asosida ushbu munosabatlar orqali topiladi:

$$P_{o'rt.} = \frac{\mathcal{E}_a}{t_s}; \quad Q_{o'rt.} = \frac{\mathcal{E}_r}{t_s}; \quad S_{o'rt.} = \sqrt{P_{o'rt.}^2 + Q_{o'rt.}^2}$$

Bu yerda, $\mathcal{E}_a$, $\mathcal{E}_r$ - aktiv va reaktiv elektr energiyalarining ko'rilayotgan t_s vaqt oralig'idagi sarfi. Korxonaning elektr ta'minotini loyihalash bosqichida guruh iste'molchilarining eng katta yuklamali smenasidagi o'rtacha quvvatini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$P_{o'rt.} = K_{ish.a} \cdot P_{nom}$$

Bu yerda, P_{nom} - iste'molchilarning nominal quvvatlarini yig'indisi bo'lib, takroriy qisqa muddatli rejimda ishlovchi iste'molchilarni UD=100% rejimga keltirish kerak; $K_{ish.a}$ - guruh iste'molchilariga tegishli bo'lgan ishlatilishi koeffitsiyenti. Eng yuklangan smenaga reaktiv quvvatning o'rtacha qiymatini guruh iste'molchilari uchun shunday topiladi:

$$Q_{o'rt.} = K_{ish.r} \cdot Q_{nom} \quad \text{yoki} \quad Q_{o'rt.} = P_{o'rt.} \cdot \tan \varphi$$

Bu yerda, $\tan \varphi$ ni qiymatini topishda ma'lumotnomalarda har xil guruh iste'molchilarga uchun berilgan quvvat koeffitsientidan foydalaniladi. Sex yoki korxonaning yillik o'rtacha quvvati ushbu munosabatdan aniqlanadi:

$$P_{o'rt.} = \frac{\partial_{a.y}}{T_y}; \quad Q_{o'rt.} = \frac{\partial_{r.y}}{T_y}$$

Ifodadagi $\partial_{a.y}$ - yillik iste'mol qilingan aktiv energiya miqdori (kVt*soat); $\partial_{r.y}$ - yillik iste'mol kilingan reaktiv energiya miqdori (kVAr*soat); T_y - korxonaning yillik ish vaqti(soat). Faza bo'yicha oldinda boruvchi toklar hosil qiluvchi iste'molchilarning(sinxron mashinalar, statik kondensatorlar) reaktiv 45 quvvatlari manfiy ifoda bilan qabul qilinadi. O'rta kvadratik yuklamalar Vaqtni har qanday oralig'ida (interval) o'rta kvadratik yuklama quyidagicha aniqlanadi.

$$P_{o'rt.kv.} = \sqrt{\frac{1}{T} \int_0^T P^2(t) dt}; \quad Q_{o'rt.kv.} = \sqrt{\frac{1}{T} \int_0^T Q^2(t) dt}; \quad I_{o'rt.kv.} = \sqrt{\frac{1}{T} \int_0^T I^2(t) dt}$$

Bu yerda, T - vaqtni ko'rilayotgan davri; $Q_{o'rt.kv.}$ – elektr energiya tarmoqlarida quvvat koeffitsiyenti($\cos\phi$) oshganda, quvvat isrofi kamayishini baholash uchun zarur bo'lgan kattalik.

Maksimal yuklama P_m - vaqtning ma'lum oralig'idagi o'rtacha quvvatning eng katta qiymati. Maksimal yuklanish - vaqtni u yoki bu davrida, ma'lum bir kutilayotgan tezlikda hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Davomiyligi bo'yicha ikki xil maksimal yuklanish turi mavjud: 1. Elektr ta'minlash tarmoqlarida sistema elementlarini qizishi va maksimal quvvat isrofi bo'yicha tanlashda, vaqt davomiyligi bo'yicha turlicha (10, 15, 30, 60, 120 min) uzoq maksimal yuklanishlar. 2. Tarmoqlardagi kuchlanish tebranishlarini tekshirish uchun, kontaktli tarmoqlardagi kuchlanish yo'qolishini aniqlash uchun, tarmoqlarni el. dvigatellarni o'z-o'zidan ishga tushish shartlari asosida tekshirish uchun, saqlagichlarning eruvchan qismlarini tanlash uchun, maksimal tokli rele himoyasini ishga tushish tokini hisoblash uchun, davomiyligi 1÷2 sek. bo'lgan qisqa muddatli maksimal yuklanishlar kerak bo'ladi. Elektr tarmoqlari yuklamalarini loyihalashtirishda ayrim hamda bir toifa elektr qabul qiluvchilarni andazali grafiklari asos qilib olinadi. Andazali grafiklar ko'p sonli bir xil ko'rinishli elektr iste'molchilari uchun o'lchov va o'zi yozadigan asboblari ko'rsatkichlari asosida quriladi. Sutka bo'yicha tajribadan bir xil olingan natijalami ishlab chiqish, ko'rilayotgan elektr iste'molchilari uchun quvvatni o'rtacha qiymatini aniqlash va yaqinlashtirilgan andazali grafigini qurish imkonini beradi. Reaktiv quvvat iste'molchilari uchun



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th June, 2025

elektr tarmoqlarini loyihalashda quvvat koeffitsiyenti qiymatini aktiv quvvatni eng katta va eng kichik qiymatlari iste'molini har xil vaqt oralig'ida yoki o'zgarmas deb qabul qilinadi. Kimyoviy ishlab chiqarishda, yuklama sutka bo'yicha maksimal qiymatga yaqindir, maktabda esa ertalabki o'quvchilar maktabga kelgandagi, kechki qorong'i tushib yana yorituv uskunalarini yoqishga to'g'ri kelgandagi ikki maksimum bo'ladi. Shunday har xil grafiklar va statistik ma'lumotlarga asosan ayrim mintaqalarni elektr ta'minot grafigi va umuman energetika tizimlarini grafigi tuziladi. Yuklamalar grafigi tarmoqlarni hisoblashda dastlabki zarur ma'lumot hisoblanadi. Energiya iste'molchisining tuzilishi (xususiyatlari) va elektr yuklamalarini qiymatlari ehtimollik xarakteriga egadir, shuning uchun hisoblangan (oldindan rejalangan) grafiklar haqiqiy grafiklardan ko'pincha farq qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Липкин Б.Ю., “Электроснабжение промышленных предприятий и установок”, Учебник. –М.: “Высшая школа”, 2010.
2. Кудрин Б.И., “Электроснабжение промышленных предприятий”, Учебник. –М.: Интермет Инжиниринг, 2005.
3. Qodirov T.M., Alimov X.A., “Sanoat korxonalarining elektr ta'minoti”, O'quv qo'llanma, ToshDTU. –T.: 2006.
4. Qodirov T.M., Alimov X.A., Rafiqova G.R., “Sanoat korxonalari va fuqaro binolarining elektr ta'minoti”, O'quv qo'llanma, ToshDTU, – T.: 2007.



EKOLOGIK MUAMMOLAR ENERGETIKA SOHASIDA

Nurullayev Orzikul Ubaevich

Jizza Politexnika instituti Elektr texnologiyasi kafedrası

+998919431810; orziqulnurullayev63@gmail.com

Ismatova Nozima JizPi talabasi

Annotatsiya

Energiya iste'moli o'sishidagi birinchi sakrash odamlar olov yoqishni va undan ovqat pishirish va uylarini isitish uchun foydalanishni o'rganganlarida sodir bo'ldi. Bu davrda energiya manbalari o'tin va inson mushaklarining kuchi edi.

Абстрактный. Первый скачок в потреблении энергии произошел, когда люди научились разводить огонь и использовать его для приготовления пищи и обогрева своих домов. В этот период источниками энергии были древесина и мышечная сила человека.

Kalit so'zlar. Sivilizatsiya, konvertatsiya, energetikaning rivojlanish, Atmosferaga, zarracha, neft va gaz kondensati, Prognoz, post industrial, Gidrosferaning ifloslanish, Yadro texnologiya.

Ключевые слова: Цивилизация, конверсия, развитие энергетики, Атмосфера, твердые частицы, нефть и газовый конденсат, Прогноз, постиндустриальный, Загрязнение гидросферы, Ядерные технологии.

Energiya iste'moli inson mavjudligi uchun zaruriy shartdir. Iste'mol qilinadigan energiya mavjudligi har doim inson ehtiyojlarini qondirish, uning umrini ko'paytirish va hayot sharoitlarini yaxshilash uchun zarur bo'lgan. Energiya inqirozi- bu energiya resurslariga bo'lgan talab ularning yetkazib berishdan sezilarli darajada yuqori bo'lgan hodisa. Sivilizatsiya tarixi - bu energiyani konvertatsiya qilishning tobora ko'proq yangi usullarini ixtiro qilish, uning yangi manbalarini ishlab chiqish va pirovardida energiya iste'molini oshirish tarixi. Energiya iste'moli o'sishidagi birinchi sakrash odamlar olov yoqishni va undan ovqat pishirish va



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th June, 2025

uyalarini isitish uchun foydalanishni o'rganganlarida sodir bo'ldi. Bu davrda energiya manbalari o'tin va inson mushaklarining kuchi edi. Zamonaviy dunyoda energetika ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyotini belgilovchi asosiy tarmoqlarni rivojlantirish uchun asosdir. Barcha sanoati rivojlangan mamlakatlarda energetikaning rivojlanish sur'atlari boshqa tarmoqlarning rivojlanish sur'atlaridan oshib ketdi. Shu bilan birga, energiya atrof-muhitga va odamlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan manbalardan biridir. Atmosferaga (kislorod iste'moli, gazlar, namlik va qattiq zarrachalar tashlamasi), gidrosferaga (suv iste'moli, sun'iy suv havzalarini yaratish, ifloslangan va isitiladigan suvlarni oqizish, suyuq chiqindilar) va litosferaga (qazib olinadigan yoqilg'ilarni iste'mol qilish, landshaftning o'zgarishi) ta'sir qiladi. Energiyaning atrof-muhitga salbiy ta'sirining qayd etilgan omillariga qaramay, energiya iste'molining ortishi keng jamoatchilik orasida katta tashvish tug'dirmadi. Bu 70 - yillarning o'rtalariga qadar davom etdi, mutaxassislar iqlim tizimiga kuchli antropogen bosimni ko'rsatuvchi ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldilar, bu esa energiya iste'molining nazoratsiz o'sishi bilan global falokat xavfini tug'diradi. Ushbu o'zgarishning asosiy sabablaridan biri energiya ekanligiga ishoniladi. Energiya deganda inson faoliyatining energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilish bilan bog'liq har qanday sohasi tushuniladi. Energetika tarmog'ining muhim qismi organik yoqilg'i (neft, ko'mir va gaz) yonishi natijasida ajralib chiqadigan energiya iste'moli hisobiga ta'minlanadi, bu esa o'z navbatida atmosferaga juda ko'p miqdordagi ifloslantiruvchi moddalarning chiqishiga olib keladi. Bunday soddalashtirilgan yondashuv allaqachon jahon iqtisodiyotiga haqiqiy zarar yetkazmoqda va rivojlanishning sanoat bosqichini yakunlash uchun zarur bo'lgan energiya iste'moli darajasiga etib bormagan mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston iqtisodiyotiga halokatli zarba berishi mumkin. Energetika sektori qisman javobgar bo'lgan issiqxona effektiga qo'shimcha ravishda, sayyora iqlimiga bir qator tabiiy sabablar ta'sir qiladi, ulardan eng muhimi quyosh faolligi, vulqon faolligi, Yer orbitasining parametrlari va o'z - o'zidan tebranishlarni o'z ichiga oladi. Muammoni to'g'ri tahlil qilish faqat barcha omillarni hisobga olgan holda mumkin, shu bilan birga, albatta, yaqin kelajakda global energiya iste'moli qanday bo'ladi, insoniyat haqiqatan ham energiya sohasida qat'iy cheklovlarni o'rnatishi kerakmi degan savolga aniqlik kiritish kerak Umumiy qabul qilingan tasnif asosiy energiya



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th June, 2025

manbalarini tijorat va notijoratga ajratadi. Tijorat energiya manbalariga qattiq (ko'mir va qo'ng'ir tosh, torf, moyli slanets, smola qumlari), suyuq (neft va gaz kondensati), gazsimon (tabiiy gaz) yoqilg'isi va birlamchi elektr energiyasi (atom, gidro, shamol, geotermal, quyosh, suv oqimi va to'lqin stantsiyalari). Notijorat manbalarga boshqa barcha energiya manbalari (o'tin, qishloq xo'jaligi va sanoat chiqindilari, hayvonlarning mushaklari va odamlarning o'zlari) kiradi. Umuman olganda, jahon energetikasi jamiyat rivojlanishining butun sanoat bosqichida, birinchi navbatda, tijorat energiya manbalariga (umumiy energiya iste'molining taxminan 90%) asoslangan. Shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatning butun guruhi mavjud bo'lib, ularning katta aholisi o'z mavjudligini deyarli faqat notijorat energiya manbalari orqali qo'llab-quvvatlaydi. So'nggi 50-60 yildagi ma'lumotlarga asoslangan energiya iste'molining turli prognozlar shuni ko'rsatadiki, taxminan 2025 yilgacha global energiya iste'molining joriy o'rtacha o'sish sur'ati davom etishi kutilmoqda - yiliga taxminan 1,5% va aholi jon boshiga global iste'molning barqarorlashuvi namoyon bo'ldi. 2100 yilga kelib aholi jon boshiga energiya iste'molining o'rtacha jahon darajasining sekin pasayishi boshlanadi. Shu bilan birga, jami energiya iste'moli 2050 yildan keyin barqarorlashuvga aniq tendentsiyani va hatto oxirigacha biroz pasayishni ko'rsatadi. Prognozni ishlab chiqishda e'tiborga olinadigan eng muhim omillardan biri bu qazib olinadigan organik yoqilg'ilarni yoqish asosida global energiya resurslarining mavjudligi. Agar aniqlangan qayta tiklanadigan zahiralarni hisobga oladigan bo'lsak, ko'mir zaxiralari neft va gaz zaxiralaridan sezilarli darajada oshib ketganligi sababli, ushbu senariy bo'yicha jahon energetikasining rivojlanishi bir asrdan ko'proq vaqt davomida resurslar nuqtai nazaridan ta'minlangan deb aytish mumkin. Shunday qilib, dunyoda jon boshiga energiya iste'moli barqarorlashuvning aniq tendentsiyasini ochib beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu jarayon taxminan 25 yil oldin, ya'ni global iqlim o'zgarishi haqidagi hozirgi taxminlardan ancha oldin boshlangan. Tinchlik davrida bunday hodisa sanoat davri boshlanganidan beri birinchi marta kuzatilmoqda va dunyo mamlakatlarining yangi, post industrial rivojlanish bosqichiga ommaviy o'tishi bilan bog'liq bo'lib, unda aholi jon boshiga energiya iste'moli doimiy bo'lib qolmoqda. Hozirda energiyani rivojlantirish bo'yicha ko'plab prognozlar mavjud. Biroq, prognozlash usullari



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th June, 2025

takomillashtirilganiga qaramay, prognozchilar noto'g'ri hisob-kitoblardan himoyalangan va 40-50 yil vaqt oralig'ida prognozlarining katta aniqligi haqida gapirish uchun yetarli asosga ega emaslar. Inson har doim oldinga harakatni ta'minlash uchun imkon qadar ko'proq energiyaga ega bo'lishga intiladi. Ilm-fan va texnologiya unga har doim ham o'sib borayotgan hajmlarda energiya olish imkoniyatini bermaydi. Ammo, tarixiy taraqqiyot shuni ko'rsatadiki, insoniyatning yana bir sifat sakrashini amalga oshirishga va yanada tezroq qadamlar bilan yangi yutuqlarga erishishga yordam beradigan yangi kashfiyotlar va ixtirolar paydo bo'ladi. Biroq, energiya manbalarining kamayishi muammosi hamon saqlanib qolmoqda. Yerning resurslari qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan manbalarga bo'linadi. Birinchisiga quyosh energiyasi, Yerning issiqligi, okean suvlari va o'rmonlar kiradi. Quyosh va Yer mavjud ekan, ular mavjud bo'lishdan to'xtamaydi. Qayta tiklanmaydigan resurslar tabiatan to'ldirilmaydi yoki juda sekin, odamlar tomonidan iste'mol qilinganidan ancha sekin to'ldiriladi. Yerning ichaklarida yangi qazilma yoqilg'ilarning paydo bo'lish tezligini aniqlash juda qiyin. Shu munosabat bilan ekspert baholari 50 martadan ko'proq farq qiladi. Agar biz eng katta raqamni qabul qilsak ham, Yerning ichaklarida yoqilg'ining to'planish tezligi hali ham uni iste'mol qilish tezligidan ming baravar kam. Energiyaning atrof-muhitga ta'sirining asosiy shakllari quyidagilardan iborat. 1. Insoniyat hali ham energiyaning asosiy qismini qayta tiklanmaydigan resurslardan foydalanish orqali oladi; 2. Atmosferaning ifloslanishi: issiqlik effekti, atmosferaga gazlar va changlarning chiqishi; 3. Gidrosferaning ifloslanishi: suv havzalarining issiqlik bilan ifloslanishi, ifloslantiruvchi moddalarning chiqindilari; 4. Energiya tashuvchilarni tashish va chiqindilarni yo'q qilish, energiya ishlab chiqarish jarayonida litosferaning ifloslanishi; 5. Atrof-muhitning radioaktiv va zaharli chiqindilar bilan ifloslanishi; 6. GESlar tomonidan daryolarning gidrologik rejimining o'zgarishi va buning natijasida suv oqimining ifloslanishi; 7. Elektr uzatish liniyalari atrofida elektromagnit maydonlarni yaratish; Yaqin kelajakda insoniyat qazib olinadigan yoqilg'ilarning cheklanishini his qilishini hisobga olsak, energiya iste'molining doimiy o'sishini energiyaning o'sib borayotgan salbiy oqibatlari bilan moslashtirishning ikki yo'li mavjud. 1. Energiyani tejash. Taraqqiyotning energiya tejashga ta'siri darajasini bug' dvigatellari misolida ko'rsatish mumkin. Ma'lumki,



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th June, 2025

100 yil avval bug‘ mashinalarining samaradorligi 3-5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich 40 foizga yetdi. 70-yillardagi energetik inqirozdan keyingi jahon iqtisodiyotining rivojlanishi ham insoniyatning bu yo‘lda katta zaxiralarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Resurs va energiyani tejovchi texnologiyalardan foydalanish rivojlangan mamlakatlarda yoqilg‘i va materiallar sarfini sezilarli darajada kamaytirishni ta‘minladi. 2. Energiya ishlab chiqarishning toza shakllarini ishlab chiqish. Muammoni, ehtimol, energiyaning muqobil turlarini, ayniqsa qayta tiklanadigan manbalardan foydalanishga asoslangan turlarini rivojlantirish orqali hal qilish mumkin. Biroq, bu yo‘nalishni amalga oshirish yo‘llari hali aniq emas. Hozirgacha qayta tiklanadigan manbalar global energiya iste‘molining 20 foizidan ko‘pini ta‘minlamaydi. Ushbu 20% ga asosiy hissa biomassa va gidroenergetikadan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Hozirgi vaqtda elektr energiyasining asosiy qismi issiqlik elektr stansiyalarida (IES) ishlab chiqariladi. Keyingi o‘rinlarda odatda gidroelektrostansiyalar (GES) va atom elektr stansiyalari (AES) turadi. 1) Issiqlik elektr stansiyalari. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqariladigan elektr energiyasi ulushi 50% dan ortiq. Odatda issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg‘i sifatida ko‘mir, mazut, gaz va slanets ishlatiladi. Ko‘pgina hisob-kitoblarga ko‘ra, sayyorada ko‘mir 100-300 yilga, neft 40-80 yilga, tabiiy gaz esa 50-120 yilga yetadi. Issiqlik elektr stantsiyalarining samaradorligi o‘rtacha 36-39% ni tashkil qiladi. Yoqilg‘i bilan birga issiqlik elektr stansiyalari sezilarli miqdorda suv iste‘mol qiladi. 2 million kVt quvvatga ega odatdagi issiqlik elektr stansiyasi kuniga 18000 t ko‘mir, 2500 t mazut va 150 000 m³ suv iste‘mol qiladi. Issiqlik elektr stansiyalarida chiqindi bug‘ni sovutish uchun kuniga 7 million m³ suv sarflanadi bu esa sovutish hovuzining issiqlik bilan ifloslanishiga olib keladi. Issiqlik elektr stansiyalari atrof-muhitning yuqori radiatsiya va zaharli ifloslanishi bilan ajralib turadi. Buning sababi shundaki, oddiy ko‘mir va uning kulida uranning bir qator zaharli elementlar yer qobig‘iga qaraganda ancha yuqori konsentratsiyalarda mavjud. Atom elektr stansiyalaridan foydalanishning asosiy muammolari qatoriga quyidagilar kiradi. 1. Reaktor xavfsizligi. Barcha zamonaviy turdagi reaktorlar insoniyatni Chernobilga o‘xshash global avariya xavfi ostida qoldiradi. Bunday baxtsiz hodisa loyihachilarning aybi, operator xatosi yoki terroristik hujum natijasida sodir bo‘lishi mumkin. Yadro erib ketishi bilan eng yomon stsenariy



yuzaga kelganda reaktor yadrosining ichki o'zini o'zi himoya qilish printsipli reaktorlarni loyihalashda o'zgarmas talab bo'lishi kerak. Yadro texnologiyasi murakkab. Ba'zi turdagi baxtsiz hodisalar yuzaga kelishi mumkinligini tushunish uchun ko'p yillik tahlil va to'plangan tajriba kerak bo'ldi. Xavfsizlik noaniqliklari hech qachon oldindan to'liq hal etilmaydi. Ularning katta qismi faqat yangi reaktorlar ishlaganda topiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Нармуродова Г. Analysis of peculiarities of symbols in the expression of condolence in English and Uzbek languages //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 202-205.
2. Kizi n. g. i. the indicator of the use of verbal and non-verbal forms of communication in the speech etiquette of condolences in english and uzbek //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 16. – С. 230-233.
3. Narmurodova G. I. Q. Yosh avlodga ingliz tilini o'rgatishda madaniyatlararo muloqot masalalarining o'rni va ahamiyati //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 20. – С. 765-769.
4. Narmurodova G. I. O'zbek madaniyatida ta'ziya marosimlarining hududiy jihatdan farqlanishi va o'ziga xos xususiyatlari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 20. – С. 733-739.



MEASUREMENT CONDITIONS FOR METROLOGICAL SUPPLY OF PRODUCTION

Raxmonov Furqat Abduxakimovich

Senior teacher of Jizzakh Polytechnic Institute

Phone: +998915660664; furqatraxmonov772@gmail.com

Annotatsiya

Mahsulot sifati ko'rsatkichlari parametrlarini o'lchash natijalarining ishonchliligi normal shartli o'lchovlarni hisobga olgan holda o'lchov vositalarini to'g'ri tanlash orqali erishiladi.

Аннотация

Достоверность результатов измерения параметров показателей качества продукции достигается за счет правильного выбора средств измерений с учетом нормальных условий измерения.

Kalit so'zlar: Metrologik ta'minot, o'lchash shartlari, o'lchov natijasi, normal sharoit, o'lchash asboblari, sifat ko'rsatkichlari, o'lchash xatolar.

Ключевые слова. Метрологическое обеспечение, условия измерения, результат измерения, нормальные условия, средства измерений, показатели качества, погрешности измерений.

Metrological support of production should ensure the optimization of process control, ensure the efficiency of processes, maintain the quality of manufacturing, storage and operation of products, taking into account the receipt of measurement results depending on the accepted conditions [1].

Measurement conditions have a significant impact on the measurement result and include ambient temperature, relative humidity, atmospheric pressure, mains voltage and much more, according to the work being done.

To quantify product indicators, it is necessary to: select parameters, characteristics; establish the degree of confidence with which the selected parameters should be determined; establish standards of accuracy; choose methods and means of



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th June, 2025

measurement to achieve the required accuracy; ensure the operability of measuring instruments by linking them to the corresponding exemplary ones with the provision of periodic verification and calibration of measuring instruments; ensure that the required conditions for measurements are taken into account or created; provide processing of measurement results and evaluation of error characteristics. Consistent observance of these requirements contributes to obtaining reliable measurement results, thereby ensuring the unity of the measurements [4].

Depending on the types of products and their parameters, the measurement conditions affect the measurement results. Therefore, operators must take measures to eliminate emerging errors in the measurement results, compensate them, take into account their influence by introducing corrections, and also strive to create normal measurement conditions.

Normal measurement conditions are measurement conditions characterized by a set of values or ranges of values of influencing quantities under which a change in the measurement result is neglected due to smallness. The normal value of the influence quantity is the value of the influence quantity set as the nominal value. As normal values or the range of normal values of influencing quantities, the ambient air temperature is usually taken - 20 ± 5 ° C; atmospheric pressure - 101.325 ± 3.3 kPa (760 ± 25 mmHg); relative humidity - 30-80% [5].

The indicated normal conditions for the use of measuring instruments, as a rule, are not the working conditions for their operation. Therefore, for measuring instruments, the range of values of the influencing quantity is usually determined, specified in the technical specifications

or standards, at which the value of the additional error should not exceed the established limits.

The main error of measuring instruments is usually calculated for the normal value, to which the results of many measurements performed under different conditions are reduced.

The normal range of values of the influencing quantity is the range of values of the influencing quantity, within which the change in the measurement result under its influence can be neglected in accordance with the established accuracy standards. The accuracy standards when choosing measuring instruments in accordance with



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th June, 2025

the purpose is the accuracy class of measuring instruments, expressed by the limits of permissible (basic and additional) errors, as well as other characteristics that affect accuracy. The limits of permissible basic and additional errors of measuring instruments are established for each accuracy class in the form of absolute, relative and reduced errors.

